

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI RIVOJLANTIRISHDA O'YINING ROLI

Bahronova Gulnoza

*Buxoro davlat Pedagogika instituti maktabgacha ta'lim
Kafedrasida o'qituvchisi*

Maktabgacha yoshdagi bola o'sib kelar ekan uning faoliyatida o'yining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Ularning oy'inlarini quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

- 1) Syujetli va roli o'yinlar
- 2) Didaktik o'yinlar
- 3) Xarakatli o'yinlar
- 4) Aralash o'yinlar
- 5) Qurish yasash o'yinlari

Prizidentimiz takidlaganlaridek "Agar mendan sizni nima qiynaydi" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'limi va tarbiyasi deb jab ob bergan 'edim degan edilar. Farzandlarimiz kelajagimiz poydevori hisoblanadi shuning uchun biz ularning faoliyati hozirda o'yinmi ham ta'limga tortishimiz kerak.

Syujetli-rolli o'yinlar o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Rolli o'yinlar bolalarning kuzatuvchanligi, qiziquvchanligini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi. Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi.

"Bolalar bog'chasi", "Maktab" kabi o'yinlar bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, burch hissi, jamoatchilik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Rolli o'yinlarda har bir bola o'zi olgan rolini bajaradi. Masalan, quruvchi, haydovchi, tarbiyachi, enaga, oqituvch'i kabilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar avval katta bo'lmagan guruhlarda 2–3 kishidan bo'lib o'ynaydi. Katta va tayyorlov guruhlarida esa ko'p sonli jamoalarga birlashadi. Oyinda o'rtoqlik munosabatlari shakllanadi.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, ro'lli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'rinar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi.

Harakatli o'yinlarni to'plash va ularni hayotga tadbiiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldida ham katta mas'uliyat yuklaydi. Yoshlarni har tomonlama jismonan baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlanishiga qaratilgan bu muammoni umumta'lim maktab qo'uvchilari jismoniy madaniyatini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog'lab kelgan uzviylikda ko'rib chiqish lozim chiqaradi, bunda harakatli o'yinlarni roli kattaligini qayta-qayta ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shuning uchun xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy o'yinlarini avaylab-asrab, keyingi avlodga yetkazish yo'llarini izlab, ishlab chiqish va hayotga tadbiiq etish bizning maqsadimizdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar bilan qurilish materiallari yordamida o'yin va mashg'ulotlar o'tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasasida qurilish materiallari yordamida otkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi. Bolalarning qurilish oyinlari rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish o'yinlarida ham bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar. Qurilish o'yinlarining mazmunini bolalarning o'zlari yaratadilar. Bolalar ko'pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, «Quruvchi ishchi» rolini bajaradilar. Bolalarning qurilish o'yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular o'z o'yinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday o'yinlar bolalarda tashabbuskorlikni uyg'otishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi. Mashg'ulot va o'yin vaqtida bolalar bir-birlari bilan turlicha munosabatda bo'ladilar. Ular rollarni o'zaro bo'lishib oladilar, ishlarni bajarishda bir-birlariga yordam beradilar va maslahatlashadilar. Qurilish o'yinlarida harakat elementlari ko'p bo'lib, u bolalarning harakat qilishga nisbatan bo'lgan talablarini qondirishga yordam beradi. Bola biror narsani qura boshlaganda qurilish materiallarini tegishli joyga olib boradi, ularni stol yoki pol ustiga joylashtiradi, engashadi, bu vaqtda uning qo'llari faol harakat qiladi, ya'ni ma'lum miqdorda jismoniy kuch sarflaydi. Mayda qurilish materiallari bilan o'ynaganda qo'lning mayda muskullari yaxshi rivojlanadi. Qurilish o'yinlarini o'ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bundan tashqari, ular o'yin jarayonida oddiy geometrik shakllarning tuzilishi bilan ham tanishadilar. Qurilish o'yinlarining tarbiyaviy ta'siri shundaki, bunda bolalar aks ettiradigan hodisa va narsalarning g'oyaviy mazmuni o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta'lim tarbiya sifat va samaradorligi omili// «Xalq ta'limi», 2004.№4. – B. 25-28.
2. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Methods and techniques of developing cognitive activities of primary school pupils //ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, 2020. № 10.(7.13.) Стр 80-87. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1537/943
3. N.T.Tosheva, M.H. Mustafoyeva Registration of age and individual characteristics in education as a pedagogical problem. European scholar journal ISSN(E): 2660-5562 Jurnal Impact Faktor: 7.235 Volume 2, Issue 4 Aprril 2021.– B. 85- 90
<https://scholar.google.com/citations?user=jJE1SeoAAAAJ&hl=ru&oi=ao>
4. N.T.Tosheva, A.M.Ibodullayeva Pedagogical bases of training of qualified pedagogical staff. International Engineering Journal For Research & Development: Vol. 6 No. 3 (2021): VOLUME 6 ISSUE 3 SJIF: 7.169 <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/2228>
5. Тошева Н. Т. Педагогико-психологические подходы к развитию познавательной деятельности учащихся начальной школы //Педагогические науки. – 2011. – №. 6. – С. 44-46.
6. Тошева Н. Т. Организация учебно-познавательных ситуаций начальных классов на основе дидактико-психологических подходов //Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. – 2017. – С. 42-46.
7. Тошева Н. Т. Бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари Fan va jamiyat. – Нукус, 2020. – №2. – Б. 109-111. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1540/942
8. Тошева Н. Т. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў.– Нукус, 2020. – №2. – Б. 126-132. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1544/941
9. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Education process directed to the person as the basis of increasing knowing activity of pupils. // The advanced science open access journal. United states, 2013. №6. . Стр. 83-85.
10. Xatamova, D. M. (2023). O'RIKNING DORIVORLIK HUSUSIYATI HAQIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(31), 223-225.
11. Xatamova, D. M. (2023). O'RIK MAHSULOTLARINING FOYDALARI VA ISHLATILISHI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(12), 498-501.

12. Xatamova, D. M., & Nosirov, Z. (2023). KAROTIN SAQLOVCHI MAHSULOTLAR VA ULARNING FOYDALARI HAQIDA. *Scientific Impulse*, 1(10), 2111-2113.

13. Xatamova, D. M., & Nosirov, Z. M. (2023). O'RIK-DORIVOR NE'MAT. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 812-817.